

“TASDIQLAYMAN”

“UzAssets investitsiya kompaniyasi” AJ
boshqaruv raisi v.b



Xarid komissiyasi raisi
B.I.Axmedov

“02” iyun 2022-yil

“UzAssets investitsiya kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining
2021-yil yakuni bo‘yicha majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun

TEXNIK SHARTLAR

1. Taqdim etilayotgan xizmat nomi: 2021-yil yakuni bo‘yicha “UzAssets investitsiya kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda Jamiyat deb yuritiladi) yillik moliyaviy hisobotlarini O‘zbekiston Respublikasining milliy audit standartlariga (keyingi o‘rinlarda MAS deb yuritiladi) hamda Milliy buxgalteriya hisobi standartlariga (keyingi o‘rinlarda MBHS deb yuritiladi) muvofiq tuzilganligini majburiy auditdan o‘tkazish.

2. Xizmatni taqdim etish muddati: 2022-yil 15-iyundan kechiktirmasdan.

3. Xizmat ko‘rsatish joyi: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirobod tumani, A.Temur ko‘chasi, 6-uy.

4. Auditorlik tashkiloti o‘z faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiradi:

- audit qilinadigan shaxslardan, shuningdek har qanday uchinchi shaxslardan mustaqillik;

- auditorlik tekshiruvlarida xolislik;

- texnika va ish usullarini tanlashda mustaqillik;

- auditorlik tekshiruvini amalga oshiruvchi shaxslarning kasbiy malakasi;

- auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishda olingan ma’lumotlarning maxfiyligi.

5. Tanlovda quyidagi auditorlik tashkilotlarining ishtirok etishiga ruxsat etiladi:

- barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish uchun litsenziyaga ega bo‘lishi;

- kamida 3 yil auditorlik faoliyatini olib borgan bo‘lishi;

- auditorlik faoliyatini amalga oshirishda kamida 200 million so‘mlik kasbiy javobgarlikni sug‘urta qilish polisiga ega bo‘lishi;

- milliy va xalqaro standartlarga muvofiq yirik xo'jalik boshqaruv organlarida xaridlar tizimini auditorlik tekshiruvini o'tkazish tajribasiga ega bo'lishi;

- qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchisining mutaxassislari bilan ta'minlangan bo'lishi;

- ustav kapitalidagi davlat ulushlari 50% va undan ortiq bo'lgan korxonalarda tashqi audit o'tkazish huquqiga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan bo'lishi;

- milliy auditorlik sertifikatini, xalqaro buxgalterlik sertifikatlaridan biriga (DipIFR, ACCA, CAP, CIPA) hamda soliq maslahatchisi sertifikatiga ega bo'lgan mutaxassislari mavjud bo'lishi;

- auditorlik tashkilotining o'z shartnomaviy majburiyatlarini to'liq bajarmaganligi oqibatida, buyurtmachi tomonidan kelesakda ko'rishi mumkin bo'lgan zararni qoplash majburiyatini o'z zimmasiga olgan bo'lishi.

7. Moliyalashtirish manbasi: Jamiyatning o'z mablag'lari hisobidan.

8. Audit o'tkaziladigan davr: 2021-yil

9. Auditorlik xizmatining boshlang'ich bahosi – 30 000 000,00 (o'ttiz million) so'm.


10. Xizmat natijalarini topshirish tartibi:


2021-yil yakuni bo'yicha Jamiyatning yillik moliyaviy hisobotlarini majburiy auditdan o'tkazish bo'yicha tashqi auditorlik xulosasi va hisobotini taqdim etish. Shuningdek, taqdim etilgan auditorlik xulosasi va hisobotini topshirish va qabul qilish fakti sifatida ikki tomonlama tuzilgan dalolatnomani imzolash.


**Buxgalteriya hisobi, moliya
va xaridlar bo'limi bosh buxgalteri**




B.Nabiyev

(Muxitdinov) 

(M. Muxitdinov) 

(M. Muxitdinov) 

(B. Nabiyev) 

(M. Muxitdinov) 

(U. Kreyev) 